

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



IJTIMOIIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

UDK: 94(575.146)

**XVIII ASRNING IKKINCHI YARMI – XIX ASRLARDA BUXORO AMIRLIGI
MADRASALARIDA TAHSIL OLGAN MASHHUR KISHILAR.**

Elmurodova Nigora Jobir qizi

*Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti, Arxeologiya va Buxoro tarixi
tayanch doktoranti. Elmurodovanigora96@gmail.com
+998906358101 ORCID ID 0009-0002-2898-5879*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro amirligi madrasalarida tahsil olgan, mamlakat madaniy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan shoirlar, tarixchilar, xattotlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, mang‘itlar, ta‘lim, madrasalar, mudarris, mullobachcha, xattot, shoir, tarix, ijtimoiy-madaniy hayot.

**ЗНАМЕНИТЫЕ ЛИЧНОСТИ ОБУЧАВШИЕСЯ В МЕДРЕСЕ
БУХАРСКОГО ЭМИРАТА ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XVIII – XIX ВЕКОВ.**

Аннотация: В данной статье рассказывается о поэтах, историках и каллиграфах, обучавшихся в медресе Бухарского эмирата и игравших важную роль в культурной жизни страны.

Ключевые слова: Бухарское эмиратство, мангиты, образование, медресе, мудarris, муллабача, каллиграф, поэт, история, социально-культурная жизнь.

**FAMOUS PERSONS WHO STUDIED IN THE MADRASAHs OF THE
BUKHARA EMIRATE IN THE SECOND HALF OF THE 18TH – 19TH CENTURIES.**

Abstract: This article discusses poets, historians, and calligraphers who studied in the madrasahs of the Bukhara Emirate and played an important role in the cultural life of the country.

Key words: Bukhara Emirate, manghits, education, madrasahs, mudarris(teacher), mullobachcha(student), xattot(calligrapher), poet, history, Socio-cultural life.

KIRISH

Buxoro amirligi O‘rta Osiyoning eng yirik ilmiy va madaniy markazlaridan biri sifatida tanilgan. Ushbu hududlar asrlar davomida ilm-fan va ma‘rifat markazi bo‘lib kelgan, uning madrasalari esa islom olamida katta shuhrat qozongan edi. Amirlik hududida faoliyat yuritgan madrasalar falsafa, adabiyot, tarix va boshqa sohalarning rivojiga ham ulkan hissa qo‘shgan.

Ushbu madrasalar olimlar, shoirlar, tarixnavislar, fuzalolar va davlat arboblari yetishib chiqqan bo‘lib, ular butun islom olamiga o‘z ta‘sirini o‘tkazgan. Ushbu maqolada Buxoro amirligi madrasalarida tahsil olib, mamlakatning ijtimoiy-madaniy hayotida muhim rol o‘ynagan mashhur kishilar haqida so‘z boradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Mazkur tadqiqotda tarixiylik, manbalar tahlili va qiyosiy tahlil usullari qo‘llanilgan bo‘lib, ular orqali Buxoro amirligining ijtimoiy-madaniy hayotida madrasalar faoliyatining o‘rnini chuqurroq o‘rganish maqsad qilingan. Shu maqsadda, madrasalarda yetishib chiqqan ilmiy kishilarning ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot Buxoro amirligi madrasalarining o‘z davridagi ilmiy-madaniy merosga ta‘sirini aniqlashga xizmat qiladi. Muammoning o‘rganilganlik darajasini tahlil etar ekanmiz, mazkur masalaga bag‘ishlab mahalliy tarixchilar, adabiyotshunoslarning ko‘plab ilmiy izlanishlarni amalga oshirganini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, V.Abdullayev, R.Orzibekov, M.Mahmudov, A.Murodov, F.Temirov, I.Abdullayev kabi tadqiqotchilarimiz Buxoro amirligidagi madaniy hayot va olimlar ilmiy ma‘lumotlar berganlar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mang‘itlar davrida Buxoro amirligining madaniy hayotida adabiyotga bo‘lgan qiziqish yuqori darajada edi. Poytaxtda va amirlikning turli shaharlarida bu sohada ijod qiluvchilar ko‘p bo‘lib, diniy, ma‘rifiy, ijtimoiy-maishiy yo‘nalishlarda asarlar yaratdilar. Amirlikning Buxoro, Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Shahrisabz va boshqa shaharlarida ko‘plab adabiy muhit vakillari, tarixnavislar, xattotlar ijod qilganlar. Ularning ko‘pchiligi Buxoro amirligi madrasalarida tahsil olganlar. Adabiy muhit vakillari, shoirlar va munshiy (kotiblar) o‘z davrining yetuk ilmiy-ma‘rifiy an‘analarini davom ettirgan holda, iiki tilda ijod qilishgan. Ushbu tillar Buxoro amirligining ijtimoiy-madaniy hayotida muhim rol o‘ynagan. Forsiy til davlat va ilm-fan tili bo‘lib, madrasalarda yozma merosning asosiy qismi ushbu tilda yaratilgan. Forsiy she‘riyat va ilmiy asarlar Buxorodagi ilmiy maktablarning yetuk an‘analarini shakllantirgan. Buxoro amirligi hududida o‘zbek tili ham adabiy jarayonning muhim qismi bo‘lib, xalq orasida keng qo‘llanilgan. Ayniqsa, badiiy asarlar, jumladan, g‘azallar, dostonlar va tarixiy manbalar bu tilida yozilgan.

XVIII – XIX asrlarda Buxoroda Mullo Abdulloh Mulhami Buxoriy, Muznib, Fitrati Zardo‘zi Samarqandiy, Shamsiddin Shohin, Ahmad Donish, Sadr Ziyo va boshqalar fors tilida ijod qilgan bo‘lsalar, Sayqaliy, Mujrim Obid, Hiromiy, Mullo Qurbon Joniy, Nurmuhammad Nasafiy, Shavqiy Kattaqo‘rg‘oniy, Tolib Tolibiy, Dilafkor, Noqislar o‘zbek tilida qalam tebratganlar.⁸² Yuqorida qayd etilgan adabiy muhit vakillari orasida ikki tilda ham ijod qilganlari uchraydi.

Asl ismi Abulqosim ibn Muhammad Sharif bo‘lgan, Shavqiy Kattaqo‘rg‘oniy nomi bilan ijod qilgan shoir 1785 yili Kattaqo‘rg‘on tumanidagi Alijon qishlog‘ida tavallud topgan.U

⁸² Абдуллаев В. XIX асрда Бухорода навоийхонлик ва Навоий издошлари // "Ўзбекистонда ижтимоий фанлар". №4. 1962. – Б. 48.

boshlang‘ich ta‘limni o‘z qishlog‘ida olib, 1815 yildan Buxorodagi Govkushon madrasasida o‘qigan. O‘qishni tamomlagach, Kattaqo‘rg‘onga qaytib, umrining oxirigacha qishlog‘idagi maktabda ishlagan. Shavqiyning o‘zbek, tojik, arab tillarida 3000 misraga yaqin she‘rlar yozgan. Shavqiy ijodida muxammas, musaddas, musabba‘, musamman, muashshar, masnaviy, ruboiy, fard, qit‘a, marsiya, chiston kabi janrlar mavjud bo‘lib, ular orqali xalqni ilm, ma‘rifatga chorlangan. Shavqiy ayrim asarlarida Alisher Navoiy, Abdulqodir Bedil, Mavlono Fuzuliy kabi shoirlarning nomlarini keltirib o‘tgan⁸³

Amirlik davrida Buxoroda ijod qilgan yana bir adib Mirakxo‘ja o‘g‘li Mujrim Obid edi. XVIII asrning ikkinchi yarmida hozirgi Buxoro viloyati Vobkent tumani Kumushkent qishlog‘ida tug‘ilgan. Buxoro adabiy muhitining zabardast vakili bo‘lib, o‘zbek va tojik tillarida ijod qilgan. Mujrim Obid Buxoroning mashhur madrasalaridan biri Mirarab madrasasida ta‘lim olgan. Dastlab Mujrim taxallusi bilan she‘rlar yozgan. XIX asrning boshlarida Amir Haydar unga Obid taxallusini bergan. Lekin u Mujrim taxallusidan ham voz kechmay, har ikkala taxallus bilan ijod qilgan. U Amir Haydar saroyida muboshirlik vazifasida ishlagan. 80 yilcha umr ko‘rgan shoir hayotining so‘nggi yillarida qashshoqlikda yashagan.⁸⁴ Adib she‘rlarida jamiyatdagi adolatsizliklar, oqibatsiz odamlar keskin tanqid qilingan.

Mang‘it amiri Abdulahadxonning adabiyot va she‘riyatga bo‘lgan e‘tibori mamlakatda ko‘plab shoirlar va adiblar yetishib chiqishini ta‘minlagan. Uning saroyida xizmat qilgan o‘z davrining yetuk shoirlaridan Afzali Pirmastiy(1840-1916) bo‘lib, do‘sti, saroy shoiri Ne‘matulloh Muhtaramning ta‘kidlashicha, “Buxoro amiri davridagi buyuk olim va zodagonlardan biri bo‘lgan”.⁸⁵ Buxoro madrasalarida tahsil olgan. U grammatika va she‘riy janrlardan yaxshi xabardor, o‘z davrining ko‘pgina shoirlari orasida yuqori mavqega ega notiq kishi bo‘lgan. Tibbiyot va astrologiya ilmini ham yaxshi bilgan. Pirmast qishlog‘ida 3 yil mufti bo‘lib ishlagan. 1900 yilda Amir Abdulahad topshirig‘iga ko‘ra, tazkiranavislik bilan shug‘ullangan. 1904 yil Buxoroda “Afzal-ut-tazkor fi zikri-shuaro val-ash‘or” tazkirasini yozib tugatgan.⁸⁶ Unda XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Buxoro amirligida yashab ijod qilgan 135 shoir va olimlarning qisqacha tarjimai hollari, asarlaridan namunalar keltirilgan. Buxoro qozisi Sadri Ziyoy ham “Navodiri Ziyoiya” asarida Afzali Pirmastiyga yuqori baho bergan.

Buxoro amiri Sayyid Amir Olimxon (1910-1920) davrida ilmiy, adabiy jarayonlarda va ta‘lim sohasida yangiliklar kirib kela boshladi. Bu davrda ijod qilgan adiblarning aksariyati jadidlar bo‘lib, ular jamiyatdagi muammolarni asarlarida keskin tanqid qildilar. Sadriddin Ayniy (1878-1954) bu davrda Buxorodagi adabiy jarayonlarning faol ishtirokchisi edi. S.Ayniy 1890 yilda Buxoroga kelib, Mir Arab, Badalbek, Olimxon madrasalarida ta‘lim olgan. Madrasani tamomlagach, jadid maktablarida muallimlik qilgan. Sadriddin Ayniyni adabiy

⁸³ Орзибеков Р. Шавкий Каттақўрғоний ва унинг адабий мероси: фил. фан. номз. дисс. Самарқанд, 1963. Б. 7-25.

⁸⁴ Темиров Ф. Бухоролик алломалар. Бухоро, 2022. – Б. 56.

⁸⁵ Ҳожи Неъматиллоҳ Мухтарам. Тазкират уш-шуаро. Душанбе: Дониш, 1975. – С.94.

⁸⁶ Айний С. Намунаи адабиёти тоҷик. Душанбе, Адиб, 2010. – С. 154.

faoliyati XIX asrning 90-yillarida she'r yozish boshlangan. Uning birinchi asari "Guli surx" 1897-yili yaratilgan. Shundan so'ng 1909-yilda jadid maktablari uchun "Tahsib us-sibiyon" nomli o'qish kitobini tuzib, nashr ettirgan. U 1954 yilning 15-iyunida Dushanbe shahrida vafot etgan.

Abdurauf Fitrat (1886–1938) Buxoro adabiy harakatlarining yetakchi namoyondalaridan biri va jadidchilik harakatining mashhur vakillaridan edi. U savodli savdogar oilasida tug'ilib, dastlabki ta'limini an'anaviy maktab va Mir Arab madrasasida oldi. 1909–1912-yillarda Istanbulda tahsil olib, ilmiy va adabiy faoliyat bilan shug'ullandi. Fitrat haqidagi dastlabki yozma ma'lumotlar 1904-yilda Ne'mutulloh Muhtaram tomonidan yozilgan "Tazkirat ush-Shuaro" asarida keltirilgan bo'lib, unda u "Hoji Mulla Abdurauf" nomi bilan tanishtirilgan. Shuningdek, Fitrat o'z asarlarida "Mijmar" taxallusini qo'llagani va uning notiqlik mahorati yuqori ekanligi ta'kidlangan.⁸⁷ Abdurauf Fitrat boshchiligidagi Istanbulda "Buxoro Maorif Jamiyati" ("Jamiyati Nashri Maorifi Buxoro") tashkil etilgan. Ushbu jamiyat ko'magida Fitratning "Munozara", "Bayonoti sayyohi Hindi" va "Sayha" kabi asarlari chop etilgan. Bu asarlar maxfiy tarzda Buxoroga yetkazilib, yosh Buxoroliklarning dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatgan.⁸⁸

Buxoro amirligi madrasalarida tahsil olgan ko'plab tarixchilar o'z asarlarida zamonlarining hukmdorlarini hujjatlashtirib, amirlikning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar qoldirganlar.

XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod qilgan va Buxoro amirligi madrasalarida tahsil olgan tarixchilardan biri Hoji Abdulazim ibn Mansurxon ibn Abdulvosixon Shar'iy Buxoriy edi. Abdulazim 1839–1893-yillar orasida yashagan. U Peshovarda tug'ilib, keyinchalik Buxoroga ko'chib kelgan va ta'limini shu yerda davom ettirgan.⁸⁹ Buxoroda madrasa tahsilini tamomlagach, 1860-yillarda mudarrislik faoliyatini boshlagan va shu bilan birga davlat ishlarida ham faol ishtirok etgan. "Ayn at-tavorix" asarida O'rta Osiyo xonliklari orasida bo'lib o'tgan janglar, podshohlarning taxtga chiqish yillari, Eron, Hindiston, Afg'oniston, Turkiya, Rossiya kabi mamlakatlarda ro'y bergan yirik voqealar hamda mazkur davlatlarning Angliya, Fransiya, Germaniya kabi Yevropa davlatlari bilan olib borgan munosabatlari, urushlarning boshlanishi, sulh shartnomalarining imzolanishi va shunga o'xshash muhim ma'lumotlarni keltiradi. Shuningdek, asarda zamonasining mashhur kishilari – podshohlar, shayxlar, ulamolar, shoirlarning vafot sanalarini qayd etilgan.

Xattot Ochildi Murod Miriy Kattaqo'rg'oniy Ne'matullo o'g'li ham Samarqand shahrining xattotlikdagi nufuzi baland bo'lishini ta'minlagan. U 1830 yili Kattaqo'rg'onda tug'ilgan. Boshlang'ich maktabni tamomlagan Ochildi Murod 21 yoshida Buxoro

⁸⁷ Хожи Неъматиллоҳ Мухтарам. Тазкират уш-шуаро. Душанбе: Дониш, 1975. С. 319–320.

⁸⁸ Абдирашидов З. Фитрат ижоди ва фаолиятига бир назар: "Мунозара" ва Истанбул Бухоро жамияти хайрияси // Scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2020, No 2 (31). – P. 287.

⁸⁹ Abdulazim Shar'iy. Ayn at-tavorix. O'zRFA ShI qo'lyozmasi, № 4217. 324a, 352a- betlar

madrasalarida tahsil olish uchun kelgan. U madrasa tahsili davrida adabiyot, tarix, hisob, handasa, arab grammatikasi va husnixatni o‘rganishga alohida e‘tibor bergan. Nasx va nasta’liq xatlarini mukammal darajada yozishni o‘rgangan. 11 yillik madrasa tahsilini tamomlagan Ochildi Murod Kattaqo‘rg‘onga qaytgan shahardagi bir maktabga muallimlik qilishni boshlagan. Bundan tashqari, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mirzo Bedil kabi shoirlarning kitoblaridan nusxa ko‘chirib, ularni sotib tirikchilik qilgan.⁹⁰

Ochildi Murod Miriy o‘zi dars berayotgan maktab uchun o‘quv qo‘llanmalar yozadi. U bolalarni urmasligi, xushmuomalaligi, ta‘lim berishda yangi va oson usullarni joriy qilganligi, muallimlar odatga aylantirgan ortiqcha sovg‘alarni rad etishi xalq o‘rtasida obro‘yi ko‘tarilib ketishini ta‘minlaydi. Ochildi Murod Miriy satirik asarlar ham yozib turgan. Uning “Poraxo‘r qozilar”, “Murid ovlovchi”, “Eshonlar” satiralari shular jumlasidandir. Ochildi Murod Miriyning keskin tanqidchiligi va maktabda yangi usulda bolalarga ta‘lim berishni yoqlab chiqishi mutaassib ulamolar hamda poraxo‘r amaldorlarning noroziligiga sabab bo‘lgan. Ammo u o‘z maqsadidan qaytmagan, yangiliklarni qo‘llab-quvvatlashga va amalda qo‘llashga yoshlarni da‘vat etib borgan. Ochildi Murod Miriy 1899 yil avgustda vafot etgan.⁹¹

Amirlikning muhim madaniy hududi bo‘lmish Samarqandda tilshunoslik va arab grammatikasi bilan shug‘ullanganlar orasida Abu Bakr Muhammad ibn Hayyot ham bor edi. Uning “Kitob Maoniy al-Qur’an” (“Qur’on ma’nolari kitobi”), “Kitob an-Nahv al-Kabir” (“Katta gramatika kitobi”) va “Kitob al-Muqii” (“Ishontiruvchi kitob”) asarlarida arab tili grammatikasi va lingvistik masalalar keng yoritilgan. Ushbu kitoblar madrasa talabalari uchun darslik va o‘quv qo‘llanma sifatida foydalanilgan.⁹² Amirlik madrasalari xattotlik san’atining rivojiga katta hissa qo‘shgan. U yerda tahsil olgan ko‘plab xattotlar Qur’on, hadislar, tasavvufiy asarlar hamda boshqa ilmiy va ta‘limiy kitoblarni nafis husnixat bilan ko‘chirib yozish bilan shug‘ullanganlar.

Muhokama. Buxoro amirligi madrasalari mintaqaning madaniy va ilmiy taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan. Ushbu muassasalar diniy va dunyoviy fanlar bo‘yicha ta‘lim berib, adabiyot, tarix va san’at sohalarida hissa qo‘shgan olimlar, shoirlar, tarixchilar va xattotlarni yetishtirdi. XVIII–XIX asrlarda Buxoro adabiy va ilmiy faoliyatning markaziga aylangan bo‘lib, Shavqiy Kattaqo‘rg‘oniy, Mujrim Obid va Afzali Pirmastiy kabi mashhur shoirlarni yetishtirdi. Ushbu shoirlar o‘zbek va fors tillarida ijod qilib, nafaqat davr adabiy merosini boyitgan, balki ijtimoiy adolatsizlikni tanqid qilib, ma‘rifatni targ‘ib qilganlar. Hojji Abdulazim Shar‘iy Buxoriy kabi tarixchilar esa amirlikning siyosiy va madaniy manzarasini yoritib, o‘sha davr haqida qimmatli ma‘lumotlarni qoldirganlar. Xattotlik ham yuksak qadrlangan san’at turlaridan biri bo‘lib, Ochildi Murod Miriy kabi xattotlar mumtoz asarlarni ko‘chirishda yetuk mahoratga ega bo‘lishgan.

⁹⁰ Махмудов М. Шоир Мирий // “Тил ва адабиёт масалалари” журналі. 1961. № 4. – Б. 59

⁹¹ Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. Тошкент: Фан, 1971. – Б. 98.

⁹² Абдуллаев И., Ҳикматуллаев Ҳ. Самарқандлик олимлар. Тошкент: Фан, 1969. – Б. 97.

Madrasalar mustahkam ilmiy an‘analarni shakllantirib, keyinchalik jadidchilik harakati kabi islohotchi oqimlarga ta’sir ko‘rsatgan. Sadriddin Ayniy va Abdurauf Fitrat kabi yetuk jadid mutafakkirlari madrasalarda shakllangan ilmiy meros asosida zamonaviy ta’lim islohotlarini ilgari surganlar.

XULOSA

Umuman olganda, Buxoro amirligi madrasalaridan yetishib chiqqan olimlar va yozuvchilar Markaziy Osiyo tarixi, adabiyoti va ta’limiga chuqur ta’sir ko‘rsatib, mintaqaning madaniy o‘ziga xosligini avlodlar davomida shakllantirishda muhim rol o‘ynagan. Buxoro amirligi madrasalari adabiyot, tarix va san’at sohalarida muhim iz qoldirgan olimlarni yetishtirdi. Ushbu olimlar mintaqaning ilmiy merosini asrash va boyitishda asosiy rol o‘ynab, kelajak avlodlarga katta ta’sir ko‘rsatgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, madrasa ta’limi va islom dunyosidagi boshqa ilmiy bog‘liqlikni yanada chuqurroq o‘rganish madrasalarning ilmiy yutuqlarni shakllantirishdagi o‘rnini taqqoslash uchun qimmatli istiqbollarni ochib berishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdulazim Shar’iy. Ayn at-tavorix. O‘zRFA ShI qo‘lyozmasi, № 4217. – Б. 324a, 352a.
2. Абдирашидов З. Фитрат ижоди ва фаолиятига бир назар: “Мунозара” ва Истанбул Бухоро жамияти
3. хайрияси // Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2020, No 2 (31). – P. 287.
4. Абдуллаев В. XIX асрда Бухорода навоийхонлик ва Навоий издошлари // “Ўзбекистонда ижтимоий фанлар”. №4. 1962. – Б. 48.
5. Айний С. Намунаи адабиёти тоҷик. Душанбе, Адиб, 2010. – С. 154.
6. Орзибеков Р. Шавқий Каттакўрғоний ва унинг адабий мероси: фил. фан. номз. дисс. Самарқанд, 1963. Б. 7-25.
7. Темиров Ф. Бухоролик алломалар. Бухоро, 2022. – Б. 56.
8. Ҳожи Неъматиллоҳ Мухтарам. Тазкират уш-шуаро. Душанбе: Дониш, 1975. С. 319-320.